Ishonchimiz komilki, agar muallif hayot bo‘lganida ushbu to‘plamini o‘quvchilar ommasiga taqdim etish uchun jonini jabborga bergan Henri Luis Geyts, beminnat yordamlari uchun Rozmari Kseypo va bir olam quvonch tortiq qilgan Vineyard Gazette hamda uning xodimlariga o‘z minnatdorchiligini bildirgan bo‘lardi.

Muqaddima

Adiba Zora Niyl Hyurstonga “jonajon singil” tutungan. Lengston Hyuz uni “qizaloq” deya chaqirardi. Shoir ma’qullaganida noppa-nozanday jufti halol ham bo‘larmidi. Jeskulayn Onassis muallif sakson beshni qoralaganida uni qaytadan kashf etdi. Opra adibaning romani asosida film suratga oldi. Bunda kimsan Helli Berri bosh rolni o‘ynadi. Shunday qilib, Doroti Uest o‘z ta’rificha, “o‘sha vaqtning eng ko‘rimsiz yozuvchisi” edi. Uning ijod davri Harlem Uyg‘onish davriga to‘g‘ri kelsa-da ilk romani 1948-yilga qadar bosilmay yotdi, ikkinchi romani bo‘lsa qariyb ellik yil o‘tib nashr etildi. Nima bo‘lganda ham Harlem Doroti ijodining ibtidosi edi: 1920-yillardagi o‘sha otashin badiiy qarshilik − qora tanlilar ijodiy isyoni o‘chog‘i. Bostondagi qora tanli ziyolilar orasidan chiqqan Uest o‘z o‘rnini shu harakatdan topdi. U harakatning eng yosh a’zolaridan biri edi. 1998-yil Dorotidan og‘ir judolik bo‘lishiga qaramay uning xootirasi dillarda barhayotligicha qoldi. Uning nodir ijodiy faoliyati sirli jumboqlar, yuksalish-u barhayotlik uyg‘unligidan iboratdir.

Hyurston bilan Uestning ikkovi ham Milliy Urban Li jurnali tashabbusi bilan o‘tkazilgan qisqa hikoyalar tanlovida ikkinchi o‘rinni egallagach taqdir taqazosi bilan ular xonadoshlarga aylanishdi. Aynan ushbu tanlov Uestni ilk bor Nyu Yorkka yetaklab kelgandi. 1932-yildagi Rossiyaga bo‘lgan safarda Doroti yozma ravishda Hyuzga turmush qurish taklifini bildirgandi. Biroq ular o‘zlarining hayot yo‘llari bilan andarmon bo‘lib, bir-biridan yiroqlashishdi. Bundy holat Uestning ijodida zimdan kuzatuv va g‘alvaga to‘la chigallik bo‘lib qoldi.

Kirish

Bolaligimda shaxsiy yotoqxonam bo‘lardi. Onam bilan xolalarim o‘smirlik yillarida ham jimitdekkina joyda bir-birlarining ustida yotib katta bo‘lishgan ekan shuning uchun ham bunday taqdirni bolalariga ravo ko‘rmaslikka muqaddas qasamyod qilishgan.

Biz anchayin katta oila edik, shunga yarasha hayhotday xonadon yashardik. Kelib-ketishlar, qahqaha-yu vahvahalar sira tinmasdi. Bolaligimni biror makon yo zamonga umrbino bo‘lib alishtirmasdim. Chamasi besh yoshlarimda aqlimni tanib, “men” im shakllana boshlaganda shu shaxsiy dunyomni holi mushohada qilishga intilardim.

Onamdan yotoqxona eshigimni yopib olib holi qolishni so‘rardim. Onam bo‘lsa nimaga bunchalik holilikni tusab qolganimni so‘rab-surishtirardi. Biroz o‘ylab olishim kerakligini aytardim-qo‘yardim. “O‘ylab olish” ni ma’qullasa bo‘ladigan ish yoki hatto sharafli mashg‘ulot deb toparmidi hoynahoy, darrov rozi bo‘lardi-qolardi. Nima bo‘lgandayam, qarshilik bildirishining sababini tushuntirishdan ko‘ra ma’qullab qo‘yish osonroq edi onai zorimga.

Yettini urib qo‘yib, onamga xos xonamni qulflashimni aytganimda. U bo‘lsa tabiiyki, nega ekan deb so‘rashga tushdi. Men bo‘lsam hikoya yozishni tusayotganimni aytdim. U hayotiy chiqishi uchun esa holilik talab etilishini qulog‘iga quydim.

Katta bo‘lganim sari hikoyalarim ma’lum bir qolipga kela boshladi. O‘n to‘rt bahorimni qarshilaganimda qo‘lda yozilgan ilk hikoyamni Boston Postiga yubordim. Bu nashriyot endigina el nazariga tushayotgan umidli yozuvchilarning ishlarini bosib chiqaradigan kunlik nomdor gazeta edi. Bu gazeta g‘olib mualliflarni uch haftada bir marta o‘n, besh yoki ikki dollarlik pul mukofoti bilan taqdirlab turardi. Bir safar o‘n dollarni qo‘lga kiritsam deng. Shu bilan ro‘zg‘orga ancha-muncha qarashgan bo‘ldim, bu hissadan ko‘ksim g‘ururga to‘lgani hali-hamon yodimda. Besh dollarlik mukofotni qo‘lga kiritganimda esa chog‘i kamayganidan yuzim biroz qizardi. Shu-shu na ikki dollarlik mukofotni olganim va na qo‘lim quruq qolganini eslay olaman; agar shunday bo‘lsa ham bu kulfatni xotiramning shunchalik qa’riga otib yuborganmanki, endi uni qayta qazib chiqarishning sira iloji yo‘q.

Adashmasam, o‘n oli yoshlarimda edi… Uyimizda birga umr guzaronlik qilib keladigan xolam troleybusni kutib turganida bir yosh qora tanli yigit unga yaqinlashib, tibbiyot maktabida tahsil olib ham ishlab o‘zini to‘la ta’minlayotganini aytib, “The Crisis” degan jurnalga obuna bo‘lishni taklif qilib qolsa bo‘ladimi. Bunaqangi jurnalni umrbino bo‘lib eshitmaganiga qaramay xolam undagi ishtiyoqqa ishonch bog‘lab, hamyoniga qo‘l suqdi.

“The Crisis” jurnalidan xabari bo‘lgan onam jurnal pochta qutimga kelib tushganini ko‘rgach taraddudlanib qoldi. Kattagina oilamizdagilarning bari Bostonda unib o‘sgani uchun sudsiz osib o‘ldirish kabi qabihliklar haqida bexabar edilar. Bunday razolatlarning ochiq-oydin tasvirlanib berilishi bizning o‘zimizga qarshi bunyod bo‘lgan olamda orzularimiz sari intilish istagidan sovutib qo‘yishi turgan gap edi-da.

Ammo bu jurnal sahifalarida nafaqat uchinchi, balki to‘rtinchi adabiy tanlovi e’lonlari bor edi. Bundan oldingi tanlovlar qora tanli ijodkorlarning necha-nechalarini kashf etganikin, bosh-keti ko‘rinmaydigan tanlovda kaminaga ham baxt kulib boqsa ne tong degan o‘y yarq etib keldi-yu men ham yozishga tushib ketdim. Jurnalga “Yozuv mashinkasi” degan hikoyamni yubordim. Ko‘p o‘tmay, taqdirlash kechasiga taklifnomani oldim. Quvonchim ichimga sig‘madi.

Qo‘li qo‘lga tegmaydigan, ey qariya - nodon Quyosh,

Deraza-yu pardalardan mo‘ralaysan suqubon bosh,

Uyg‘otib ne nafdir senga, ne naf qutqarmoq g‘aflatdan?

Chaqirib senga ne foyda, ne foyda bor chorlamoqdan?

Bani-bashar oshiqlaring yelmog‘i shartmi ortingdan?

Dashnom berib qo‘ygin durust, mayli koyi, tortgin undan,

Maktabidan kechga qolgan tirranchalar qulog‘idan.

Saroy ovchisiga shipshi podshoh ovga shaylanganin,
Daladagi chumoliga ayt hosillarning yetilganin.
Lek muhabbat tanlagaydir na bir fasl va na iqlim,
O‘tayotgan har vaqt, oy, kun erur vaqtdagi bir qiyqim

BUSY old fool, unruly Sun,
Why dost thou thus,
Through windows, and through curtains, call on us?
Must to thy motions lovers' seasons run?
Saucy pedantic wretch, go chide
Late school-boys and sour prentices,
Go tell court-huntsmen that the king will ride,
Call country ants to harvest offices;
Love, all alike, no season knows nor clime,
Nor hours, days, months, which are the rags of time.

Thy beams so reverend, and strong
Why shouldst thou think?
I could eclipse and cloud them with a wink,
But that I would not lose her sight so long.
If her eyes have not blinded thine,
Look, and to-morrow late tell me,
Whether both th' Indias of spice and mine
Be where thou left'st them, or lie here with me.
Ask for those kings whom thou saw'st yesterday,
And thou shalt hear, "All here in one bed lay."

She's all states, and all princes I;
Nothing else is;
Princes do but play us; compared to this,
All honour's mimic, all wealth alchemy.
Thou, Sun, art half as happy as we,
In that the world's contracted thus;
Thine age asks ease, and since thy duties be
To warm the world, that's done in warming us.
Shine here to us, and thou art everywhere;
This bed thy center is, these walls thy sphere.